



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

donishmandni uchratishi, unga Paylaqushakimning bergan maktubini berishi va uchinchi qal'adagi "zol-kampir" sehrini fosh qilishi kerakligi haqidagi voqelik bayon etiladi.

Dedi donoki: "Ulki derlar zol,
Zoldek men yasab menul timsol.
Sehrdin tegrasida tor ilapud,
Borcha erur namudu yo'q mavjud.
Senki ul yon azimat etkungdur,
Chunki darband ichiga yetkungdur.
Zolning ko'ksiga urub ittisol,
Kiru bo'l mahram, harimi visol" [AlisherNavoiy. 1992: 252]

Maydonda bir kampir timsoli bo'lib, uning atrofida bir necha ajdaho og'zidan o't ochib turardi. Sa'd qo'rquv bilmay ildam yurib bordi-da, kampir ko'kragiga zarb bilan tepdi. Timsol o'z yeridan tebranib, keyin butun a'zosi birma-bir to'kilib tushdi. Uning ko'rinishi odamga o'xshagan bo'lib, lattalarni bir-biriga yopishtirib yasalgan ekan. Atrofidagi ajdaholar ham qalbaki bo'lib, og'zidan otilayotgan o'tlar qizil ipak matolar ekan[Alisher Navoiy. 2016: 329].

Alisher Navoiy ushbu asar davomida kampir obrazini yaratar ekan, birini adolat izidan boruvchi, rahmli va shavkatli, yana birini hiylagar va makkor, yana birini maslahatgo'y va mehribon inson, yana birini esa sehr jam bo'lgan timsol sifatida gavdalandiradi. Asarni o'qish va doimiy tahlil qilib borish obrazlarning ichki va tashqi olamini to'g'ri tushunish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назарова Н. Алишер Навоийнинг "Хамса" асарида келтирилган шахс номларининг қаҳрамон феъл-атвориға дахлдорлиғи// Академис Ресеарч ин Эдусатионал Сиенсес. 2021, 1042-б.
2. Юсупова А. Навоий ижодида аёл сиймоси. Алишер Навоий адабий ва илмий меросини ўрганиш масалалари. Халқаро конференция материаллари. 2023, 192-б.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами: Еттинчи том. – Т., 1991. 138-б.
4. Алишер Навоий. Хамса. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. 186-б.
5. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами: Саккизинчи том. – Т., 1991. 436-бет.
6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами: Тўққизинчи том. – Т., 1992. 136-б.
7. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами: Ўнинчи том. – Тошкент: Фан, 1992. 252-б.

RAMZIY-MAJOZIY OBRAZLAR TA'VILI HAQIDA MULOHAZALAR

Raxmanova Nafisa Azatbekovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

nafisarahmonova1966@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/QJFN7011

Annotatsiya. XII-XIII asrlardagi turkiy adabiyotda irfoniy tuyg'ularni tarannum etish ehtiyoji she'riyatda majoz, ramz, istiora kabi ko'chimga asoslangan she'riy san'atlarni tasavvuf aqidalarini bayon qilish vositasiga aylantirdi. Ana'naviy obrazlardan tasavvufiy ramz sifatida foydalanish boshlandi. Adabiyot ikki oqimga: haqiqat tariqi va majoz tariqiga bo'lindi. Haqiqat tariqi ko'chimlar vositasida vahdat-i vujud va tavhid masalasini yoritgan bo'lsa, majoz tariqi tasavvufiy – falsafiy va ijtimoiy hayot muammolarini ramzlar orqali ifodalay boshladi. Ushbu

maqolada Xusrav Dehlaviy, Ahmadiy, Alisher Navoiy va Nizoriy kabi shoirlarning ramziy-majoziy obraz yaratish mahorati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: haqiqat tariqi, majoz tariqi, nafsi ammora, qalb, ruh, aql.

CONSIDERATIONS ON THE INTERPRETATION OF SYMBOLIC-PHOTOGRAPHICAL IMAGES

Abstract. *This article explores the evolution of Turkish literature in the 12th and 13th centuries, particularly the transformation of poetic art into a medium for expressing Sufism. As mystical thought gained prominence, poetic forms that utilized metaphor, symbolism, and allegory became central to this spiritual expression. Traditional images were reinterpreted as mystical symbols, leading to a division in literary tradition: the haqiqat tariqi (path of truth) focused on themes of unity and monotheism through metaphor, while the majoz tariqi (path of metaphor) used symbolic imagery to address mystical, philosophical, and social issues. The article specifically examines the mastery of symbolic and metaphorical image creation by poets such as Khusrav Deglavi, Ahmadiyya, Alisher Navoi, and Nizari, analyzing their contributions to this literary and spiritual tradition.*

Key words: *the way of truth, the way of metaphor, the lust, the soul, the heart, the mind.*

X-XI asrlarda yaratilgan fors va turkiy she'riyatda majoziy tasvir faqat estetik zavq berish, oddiy hayot hodisalarini nafis timsollar orqali ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, XII-XIII asrlardagi turkiy adabiyotda irfoniy tuyg'ularni tarannum etish ehtiyoji she'riyatda majoz, ramz, istiora kabi ko'chimga asoslangan she'riy san'atlarni tasavvuf aqidalarini bayon qilish vositasiga aylantirdi. Ana'naviy obrazlardan tasavvufiy ramz sifatida foydalanish boshlandi. Adabiyot ikki oqimga: haqiqat tariqi va majoz tariqiga bo'lindi. Haqiqat tariqi ko'chimlar vositasida vahdat-i vujud va tavhid masalasini yoritgan bo'lsa, majoz tariqi tasavvufiy-falsafiy va ijtimoiy hayot muammolarini ramzlar orqali ifodalay boshladi.

Dastlab ishqi haqiqiy Alloh vasliga intilish, faqat uning xayoli bilan yashashni bildirgan, ishqi majoziy insonlarning bir-biriga va foniy dunyo ashyolariga bo'lgan ishqi sifatida talqin etilgan va biri ikkinchisiga zid qo'yilgan. Insoniy muhabbat hayotda har doim ham pok, beg'araz bo'lmaydi. Abdurahmon Jomiyning "Lavome" asarida inson husni oshiqdari to'rt tabaqaga ajratilgan:

1) ravshandilonlar tabaqasi, ya'ni nafsi shahvatdan pok, ko'ngillari tabiat chirkalaridan qutilgan, haq jamolini mushohada qilishdan o'zgani o'ylamaydigan oq ko'ngillilar;

2) pokbozlar tabaqasi, ya'ni "Al-majozu qantar ul-haqiqa" hukmiga amal qiluvchilar. Mazharlarning yetugi bo'lmish inson mazhari bularning vujudiga ishq o'tini yoqib, suvari husnga boqqanda ilohiy husnni mushohada qiladilar;

3) giriftoronlar tabaqasi, ya'ni go'zalrog'i topilsa, yangilariga ko'ngil qo'yadigan, mahbub almashtirishni kasb qilib olgan tutqunlar;

4) oludagonlar tabaqasi, ya'ni nafsi ammorallari o'lmagan, shahvat o'ti so'nmagan, haqiqiy mahbubni butunlay unutib, havoyi nafsni ishq deb ataydiganlar [Рустамий, 2012: 30-31].

"Lavome" asari bilan yaxshi tanish bo'lgan hazrat Navoiy majoziy ishqni avom ishq va xavos ishqiga ajratib, "Mahbub ul-qulub" asarida ishqi va oshiqlikni uch qismga bo'ladilar: avom ishq, xavos ishq va siddiqlar ishq. Jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadigan avom - oddiy odamlar ishq, agar chin sevgi bo'lsa, uning oliy

martabasi sha'riy nikoh bo'lishini, agar hayvoniy hirs bo'lsa, janjal-u sharmandalikdan o'zga narsa emasligini ta'kidlaydilar. Xavos ishq i esa kam sonli oshiq'larga nasib etadigan pokbozlar ishqidir. Pokbozlar pok ko'zni pok niyat bilan pok yuzga soladilar. Pok ko'ngil ul pok yuzning shavqi bilan beqaror-u behud bo'ladi. Pok oshiq bu pok yuz vositasi bilan haqiqiy mahbubning – Yaratganning jamolidan bahra oladi. Siddiqlar (ravshandilonlar) ishq i Oliy haqiqat tajalliysini bevosita ko'rish istagiga g'arq bo'lib, halok bo'lish darajasiga yetish va o'zlikni shu yo'lga taslim etishdir.

Badiiy adabiyotda majoz i ish qning mohiyatini badiiy timsollar bilan ifodalash, majoz i obrazlar yordamida insonning Oliy haqiqatga munosabatini uning o'zga insonlarga, o'zi yashab turgan jamiyatga, borliqqa munosabati bilan uyg'unlikda tasvirlash, shubhasiz, Tavhid ta'limotining eng mukammal talqini bo'ldi [Имомназаров, 2010: 28].

Tasavvuf she'riyati tarixiga nazar solsak, Abusaid Abulxayr (967-1049), Bobo Tohir (980-1055), Ahmad Yassaviy kabi so'fiy shoirlar boshlab bergan tasavvuf she'riyati XI asrda kichik lirik janrlar bilan cheklanganini ko'rishimiz mumkin. XII asrgacha fors va turkiy adabiyotda tarixiy, qahramonlik, ishqiy-romantik va didaktik dostonlarni yaratish an'anasi ustunlik qilgan. Sharq adabiyotida Ayyukiyning "Varqa va Gulshoh" masnaviysi (X asr) bizgacha yetib kelgan ilk ishqiy doston hisoblanadi. "Shohnoma" tarkibiga kiruvchi "Zol va Rudoba", "Rustam va Taxmina", "Xusrav va Shirin" kabi sevgi dostonlarida harakatlantiruvchi kuch tarixiy voqealar bo'lsa, Unsuriyning "Vomiq va Uzro", Faxriddin Gurgoniyning "Vis va Romin" kabi ishqiy masnaviylarda har xil maqomdagi avom ishq i hisoblanadi: qahramonlarni ijtimoiy muhit, jamiyatning fikri, siyosiy va axloqiy asoslari qiziqtirmaydi, ular o'z baxtlari, his-tuyg'ulari erkinligi uchun kurashadilar. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlariga kelib irfoniy she'riyatda ham epik asarlar yaratila boshladi. Arab tilida Ibn al-Farid (1181-1234) va Ibn al-Arabiy (1165-1240), fors tilida Fariduddin Attor (1147-1229)ning irfoniy ishqqa bag'ishlangan asarlari dunyoga keldi. Haqiqat va majoz tazodi bosh mavzuga aylandi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"ning "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida" deb atalgan birinchi qismning 16-faslida XIII asrning boshi – XV asrda ijod qilgan shoirlarni – Semurg' jamolini ko'rish istagida mashaqqatli safarga chiqqan qushlarni to'rt guruhga ajratganlarida majozni asosiy o'lchov qilib oldilar. Birinchi guruhga XIII asrda ijod qilgan Fariduddin Attor bilan Jaloliddin Rumiyni kiritib, ularni "haqiqat tariqining suxanvari" deb ataydilar. Bu guruh vakillari "avliyoyi ogoh va mashoyix va ahlulloh" bo'lib, ishlari ma'nilar xazinasidan ma'rifat gavharini termog va u gavharni el fayz topsin deb nazm ipiga termogdir. Ilohiy kalom oyatlari va Rasulullohning hadislari mazmunini izlagan odam ulardan topa oladi. El ularning asarlarini she'r deb atashga jur'at qila olmaydi, chunki ular ataylab, qasddan yozilmagan, ilohiy sirlar-u cheksiz ma'rifatni Alloh ularning ko'ngliga solgan. "Avliyo shoir she'rda o'zini emas, haqni ko'rsatadi. Zero, chin oshiqning she'ridan Haqning bo'yi keladi" [Имомназаров, 2010:157]. Fariduddin Attor bilan Jaloliddin Rumiyning majozga munosabati keyingi davr so'fiy shoirlarning qarashlaridan biroz farq qiladi. Ular insonlarni Alloh jamolining ko'zgusi bo'lgan olam, tashqi moddiy dunyo hoy-u havaslariga, yani majozga berilib ketishdan qaytarib, Borliqning asl Haqiqati sari intilishga, Mohiyatga e'tibor berishga chaqirganlar [Имомназаров, 2010:19].

Ikkinchi guruhga Haqiqat sirlariga majoz yo'lini aralashtirgan Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Zahiriddin Sanoiy, Shayx Avhadiddin va

Shamsuddin Muhammad Hofizni kiritadi. Ilohiy va majoziy ishqni madh etish yo'lida kamolga erishgan, ilmi har ikkala yo'lda mukammal bo'lgan Abdurahmon Jomiy ham shu guruhga kiritilgan.

Uchinchi guruhda she'rlarida majoz yo'lini tutgan, majoziy timsollarga rag'bat ko'rsatgan Kamol Isfaxoniy, Xoqoniy Shirvoniy, Xojuyi Kirmoniy, Anvari, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy kabi shoirlarning nomi tilga olinadi. Bu shoirlarning aksariyati Attor va Rumiylar bilan bir davrda yashaganini hisobga olsak, XII-XIII asrlarda tasavvuf adabiyotida ikki xil adabiy yo'nalish: Haqiqat tariqi bilan majoz tariqi birga mavjud bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

To'rtinchi guruhga so'zlarida haqiqat, ma'rifat bolidan lazzat bo'lmagan; yozgan nazmlarida shavq va ishq o'tidan harorat ufurmagan; oshiqona kuyish-yonishlarida alanga mavjud bo'lmagan shoirlar kiritilgan.

Majoz tariqi haqparast shoirlarga nafaqat o'zining insoniy tuyg'ularini, dunyoning go'zalligi, hayotning shirinligi haqidagi qarashlarini, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy nuqsonlar, jaholat va zulmga qarshi nafratini ramzlar orqali oshkora aytishga imkon berdi.

XIV-XV asrga kelib fors va turkiy adabiyotda majoz tariqi yetakchi mavqega ko'tariladi. Amir Xusrav Dehlaviy Nizomiy dostonlariga majoz tariqi yo'nalishida javob yozib, Eron, Markaziy Osiyo va Hindiston hududida Nizomiy "Xamsa"siga tatabbu' bog'lash va majoziy ishqni kuylash an'anasini boshlab berdi. Xojuyi Kirmoniy (1281-1352), Salmon Sovajiy (1300-1376), Kotibiy (1436-yilda vafot etgan), Ahmadiy (1334-1410), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Alisher Navoiy (1441 -1501), Lom'iy (1475-1532)lar "haq asrori"ni "majoz tariqi"ga "maxlut qilib" dostonlar yaratdilar. Ular majoziy obrazlarning otashin muhabbatini ehtiros bilan gavdalantirar ekanlar, asarning muqaddimasida yoki oxirida majoziy timsollarning irfoniy sharhini ham berishni unutmadilar.

Masalan, Xusrav Dehlaviy "Shirin va Xusrav" dostonining muqaddima qismida bir bobni ishq ta'rifiga bag'ishlaydi. Shoirning e'tirofiga ko'ra, ishqsiz yashaganni inson deb bo'lmaydi, ishqsiz vujud bir hovuch loydir. Amir Xusrav turmush o'rtog'ining jasadini quchoqlab, tiriklay yonishga rozi bo'lgan hind ayollari sadoqati; butga sig'inmagani uchun arralangan, lekin og'riq sezmagan otashparast taqdiri misolida haqiqiy ishqning qudratiga ta'rif berar ekan, shunday xulosaga keladi:

Fidoyi ishq shav, gar xud majozist,

Ki davlatro dar-u po'shida rozist.

Haqiqat dar majoz inak padid ast,

Ki fathi on xazina z-in kalidast.

(Ishqqa o'zingni fido qil, gar u majoziy bo'lsa ham,

Chunki saodat sirlari undadir.

Haqiqat majozda o'zini namoyon etadi,

Majoz ul xazinani qo'lga kiritish kalitidir.)

Muqaddimada keltirilgan Mahmud G'aznaviy va Ayozi haqidagi hikoyat Xusrav-Shirin-Farhod sevgisini to'g'ri talqin qilishga kalit vazifasini bajaradi [Dəhləvi, 2006:19-20]. Bizningcha, Xusrav Dehlaviy beshligining mashhur bo'lib ketishiga aynan Nizomiy "Xamsa"siga "majoz tariqi" yo'nalishida tatabbu' bog'lagani va avom ishq bilan ilohiy ishq o'rtasida majoziy ishqni ko'prik qilgani sabab bo'lgan.

Salmon Sovajiyning "Jamshid va Xurshid" dostonini turk tiliga erkin tarjima qilgan Ahmadiy dostonning ikki qismida lirik chekinish qilib, undagi majoziy obrazlar

talqiniga bag'ishlangan falsafiy-axloqiy ma'viza keltiradi. O'n yetti baytdan iborat birinchi ma'viza "Dar tamsil" deb atalsa, xulosa qismida keladigan oltmish ikki baytli ikkinchi ma'viza "Fit-tamsil va't-ta'vil" deb nomlanadi. Muallifning ta'kidlashicha, dostonning bosh qahramoni bo'lgan Jamshid – aql timsoli, donoyi solik ramzi. Xurshid esa mazhardir, u Allohning jamolini tamsil qiladi [Ördek, 2017:707].

Bu destānuñ besī vardur rumūzı
Ki oldur ğaybdan aqluñ künūzı
Nedür Cemşid bir dānā-yı sâlik
Ki dīn-i şer'dür aña mesâlik
Nedür ol didügüm Hurşid maķsūd
Olur temşilde âbidle ma'būd [Ördek, 2017: 687].

Chin podshosining o'g'li Jamshid tushida go'zal bir qizni ko'rib sevib qoladi. Jahonning ko'p mamlakatlarini kezgan sayyoh rassomdan tushida ko'rgan qiz yunon hukmdorining qizi – Xurshid ekanligini biladi. Jamshid yuz minglik qo'shin bilan hidoyat ramzi bo'lgan Rum eliga qarab jo'naydi. U suvsiz sahrolardan, qalin o'rmonzorlardan o'tib, yirtqich hayvonlar bilan olishadi, jang qilib yetti boshli ajdarho va dahshatli devni o'ldiradi. Ahmadiy insonning eng yovuz dushmani bo'lgan nafsni devga o'xshatadi:

Nedür ol dīv nefsüñdür yaķın bil
Yavuz düşmendür anuñ çāresin kıl...

Jamshid o'ldirgan yetti boshli ajdaho – nafs ammoraning ramzi bo'lib, uning bir boshi hasad, ikkinchisi-hubbi mansabi joh, uchinchisi-kibr, to'rtinchisi – g'azab, beshinchisi – ta'ma, oltinchisi – buxl, yettinchisi – hubbi dunyoni tamsil qiladi. Shu bois nafs ajdahosini halok qilgan odam mujohid va g'azo ahlidan bo'ladi:

Helāk iderseñ ol nefes ejdehāsın
Mücāhidsin ü hem ehl-i ğazāsın [Ördek, 2017: 687-690].

Dengizda Jamshidning kemasi halokatga uchrab, o'zi tasodif bilan bir taxtaga yopishib qutulib qoladi. Taxta – ixlos, taxtani qirg'oqqa haydagan shamol tavfiq ramzi. Insonni dunyoga kelganiga pushaymon qildiradigan darajada qo'rqinchli kimsasiz orol esa Arosatdir, deydi shoir.

"Jamshid va Xurshid" dostonidagi Chin va Rum o'lkalari, parilar yurti, devlar makoni, Hurizod, Nozparvard, yalmog'iz, hakim, rayhon, gullar, dengiz va undagi to'fon, quti-quti javohirlar ham ramziy-majoziy obraz bo'lib, ularning ta'vili, shubhasiz, XIV-XV asrlarda majoz tariqida yaratilgan boshqa epik asarlarni to'g'ri talqin qilishimizga yordam beradi.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni XV asrda yaratilgan, haqiqat va majoz, ramziylik va hayotiylik omuxta qilingan asarlarning eng mukammali bo'ldi. Hazrat Navoiy dostonning ikkinchi bobida Farhod – taqdir, Shirin – mazhar, Mulkoro va Suqrot – aql, Shopur – qadar, Sheruya – ajal, Shabdiz tun ramzi ekanligiga ishora qilib, o'z o'quvchisini xoslar ishqi qalamga olingan majoziy dostonni o'qib uqishga tayyorlaydi. Diniy-tasavvufiy manbalarda keltirilishicha, insonga nafs, qalb, ruh va aqlni bu dunyo manzilidan chin dunyoga toza va pok holda olib o'tish buyurilgan. Navoiy nafs, qalb, ruh, aql haqidagi qarashlari va xulosalarini doston badiiyatiga singdirib, majoziy obrazlar bilan bayon etdi: Farhod bosib o'tgan birinchi manzil – nafs timsolidir, unda nafs ammorasi ramzi bo'lgan ajdaho ustidan g'alaba qilinadi; ikkinchi manzil – qalb timsoli, unda Farhod devni o'ldirib, kibr va manmanlikdan qutuladi; uchinchi manzil – ruh timsoli, jom Jamshidni qo'lga kiritgan Farhod suluk tadrijida

muayyan bir martabaga erishadi; to'rtinchi manzil – aql timsoli, Farhod piri komil Suqrotidan ilohiy va majoziy ishq ilmini o'rganib, ilohiy qudrat egasiga aylanadi [Эрали, 2015: 51-58].

XIX asrda yashagan uyg'ur shoiri Nizoriy ham Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga tatabbu' qilib yaratgan dostonida Farhod Yamanda duch kelgan yovuz kuchlarning majoziy mohiyatini lirik chekinish shaklidagi falsafiy-ahloqiy mav'izada sharhlab bergan. Nizoriyning tasvirlashicha, odamzodning nafsi hasad g'orining og'zida turgan ajdarga o'xshaydi. Ahraman esa takabburlik va hirsdir, u kishining dimog'iga uya qurib, uni xarob qiladi. Mav'izada aql Xizrqa, Allohning haqiqiy oshiqlari Suqrotga o'xshatiladi [Солиҳова, 1995: 72-73].

Majoz olamiga qilgan qisqa sayohatimizdan ko'rinib turibdiki, Haqiqat asrorini insonni o'rab turgan olamdan qidirish, Haqning suratini pok ko'ngil bilan tadqiq etish, aslida, pok ko'ngil, pok ko'z, pok niyat bilan inson qalbiga quloq tutish, samimiy va beg'araz mehr bilan o'zgalar qalbiga yo'l topish, inson qalbini tushunish orqali Tavhidning mohiyatini anglab yetishni anglatadi. Majoz tariqi hazrat Navoiy ijodida o'zining eng mukammal ifodasini topgan ekan, "Xamsa" dostonlari va "Lison ut-tayr"dagi ramziy-majoziy timsollar tilini tushunishimiz uchun Navoiygacha fors va turkiy tillarda yaratilgan majoziy asarlardagi ramziy timsollarning ma'no taraqqiyotini chuqur o'rganishimiz, mag'zini chaqishimiz lozim bo'ladi.

Tasavvuf botiniy ilm ekan, uning o'rganish obyekti ko'ngildir. Alisher Navoiyning e'tiroficha, aynan so'z ko'ngil xazinasini qulfining kaliti hisoblanadi. Tasavvufiy adabiyotda ramz bo'lib kelgan so'zlar ham o'z ma'nosida, ham tasavvufiy ma'noda qo'llanadi; har bir shoir sof tasavvufiy istilohlarga o'z ma'naviy dunyosidan kelib chiqib badiiy libos kiydiradi. "Gul" ramzining ma'no qirralarini o'rgangan Mirzajon Qalandarov **gul** obrazining Hofiz g'azallarida yigirmadan oshiq to'g'ri va ko'chma ma'nolari, o'nta tasavvufiy ma'nosi mavjudligini aniqlab, irfoniylar va izohli lug'atlar **gul** so'zining ma'nolarini yuz foiz ifodalab berolmasligiga guvoh bo'lmoqdamiz, degan xulosaga keladi [Qalandarov, 2010: 126]. Shu bois majoz tariqi yo'lida ijod qilgan har bir shoir ijodiga bag'ishlangan, ular qo'llagan ramziy- majoziy timsollarning ma'no qirralarini ochib beruvchi irfoniylar-tasavvufiy lug'atlarni tuzish navoiyshunoslar va sharqshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Əmir Xosrov Dəhləvi. Şirin və Xosrov. Bakı, "AVRASİYA PRESS", 2006. –S.125.
2. Имомназаров М. Минтақа адабиети ривожда тасаввуфнинг ўрни. // Бадий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. –Т.:2010. – Б. 6-28.
3. Рустамий, Алибег. Ҳазрат Навоийнинг "масти аласт"и. –Т.: Extremum Press, 2012. – 48 б.
4. Солиҳова Х. Уйғур дostonчилиги ва насри тараққиетида Алишер Навоий "Хамса"сининг ўрни// ФФД илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. –Т.: 1995. – 268 б.
5. Эрали, Бобомурод. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари. –Т.:Академнашр, 2015.-80 б.
6. Ördək, Şerife. Cemşid ü Hurşid mesnevileri ve Ahmedi ile Selman-ı Saveci'nin Cemşid ü Hurşid mesnevilerinin mukayesesi. Doktora tezi. Nevşehir, Aralık 2017. – S.1041.
7. Қаландаров М. Ҳофиз ғазалларида "гул" рамзи // Бадий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. – Т.:2010. – Б.105-126.

NAVOIY NAZMIDA LAYLI OBRAZINING BADIY TALQINI

Ulug'murodova Kamola Murodullayevna

Filologiya fanlari nomzodi, (PhD), Profi University Navoiy filiali
kamolamurodullayevna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola Navoiy g'azallarida qo'llangan Layli obrazining shakllari, mazmun-mohiyati hamda badiiyatiga qaratilgan. Unda obraz bilan bog'liq qarashlar Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" to'plamidan joy olgan baytlar misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bayt, she'riyat, tasavvuf, obraz, timsol, Layli, Majnun.

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF LAYLI IN NAVAI'S POEM

Abstract. This article explores the forms, content, and artistic expression of the image of Layli in Alisher Navoi's ghazals. Through an analysis of selected verses from Navoi's *Khazayin ul-Maani*, the article examines the various interpretations and symbolic representations of Layli, highlighting the intricate relationship between the poetic form and thematic depth in Navoi's work. The study further explores how the image of Layli serves to convey complex emotional and philosophical ideas within the broader context of Persian and Turkic poetic traditions.

Keywords: verse, poetry, mysticism, image, symbol, Layli, Majnun.

Navoiy lirikasi va ular tarkibida qo'llangan obrazlar o'zining mukammalligi bilan ko'plab ilmiy izlanishlarga turtki bo'lmoqda. Xususan, adabiyotshunos olim Natan Mallayev Navoiy lirikasi xususida to'xtalib, shunday fikrlarni ilgari suradi: "Alisher Navoiy adabiy tur va janrlarning rivojida salmoqli o'rin tutgan san'atkoridir. Uning boy va bebaho ijodi o'zbek mumtoz adabiyotini uning tur va janrlarini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tardi va takomillashtirdi" [Mallayev, 1968:128]. Qolaversa, "Navoiyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'zbek xotin-qizlari haqidagi ilg'or fikr va orzularini yuksak badiiy vositalar, timsollar orqali ifodaladi" [Abdullayeva, 1968:72]. Mazkur qarashlarni biz "Xazoyin ul-maoniy" da qo'llangan Layli timsoli misolida ko'ramiz.

Navoiy devonlarida uchragan Layli timsoli Majnunga suyuqli yor, badiiy asar qahramoni, Yaratganning yerdagi tajalliysi, go'zallikda tengsiz o'zbek qizlarining umumlashma timsoli hamda tun ma'nolarida qo'llangan. Xususan:

Dardi hijron mendadurkim, umr o'tub ko'rmon yuzin,
Vasl komildur, bukim Laylig'a Majnun telmurur.

(Badoyi' ul-vasat, 176-g'azal,)

Mazkur misralarga Navoiy tasavvufiy fikrlarini yashirinchalik singdirgan. Chunki baytning birinchi misrasida ayriliq dardida qiynalayotgan lirik qahramon bir umr Yaratganning jamolini ko'ra olmaganligi, ikkinchi misrasida esa inson obrazini shakllantirgan Majnun o'zida Alloh siyrati-yu suvratini jo qilgan Layli yuziga termulishi orqali vaslga erishish mumkin bo'lgan holat shoir tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Xususan, "arab xalqi orasida keng tarqalgan, keyinchalik badiiy ijod namunalari munosib ahamiyat kasb etgan Layli va Majnun haqidagi ishqiy afsona tasavvuf tufayli mashhur bo'ldi. Chunki tiriklikda bir-biriga yetolmagan oshiq-ma'shuqlar to'g'risidagi mazkur qayg'uli qissa va dostonlar Allohning vasliga bu dunyoda erishib bo'lmasligi haqidagi so'fiyona talqinga juda mos keladi. Alisher Navoiy

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622